



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI:  
MUAMMO VA VAZIFALAR”**

**mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari  
(2022-yil 31-may)**

Tashkent-2022



**O'zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar** / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 31.05.2022. – 356 b.

Mazkur to'plamdan korpus lingvistikasi sohasiga doir tadqiqot natijalari, filologik dasturiy ta'minotlar, ularning imkoniyatlari va afzalliklari, tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalar, semantik tizim bazalari, til va adabiy korpuslar, lingvistik ta'minot manbalari, mashina tarjimasida lingvistik muammolar, lingvodidaktik dasturlar va platformalar, terminologik lug'atlarni yaratish masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to'plamdan korpus lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

**B.Mengliyev** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**Sh.Shaxobitdinova** – Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

**Sh.Hamroyeva** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: MUAMMO VA  
VAZIFALAR**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya  
materiallari

2022-yil 31-may

**Toshkent – 2022**

---



---

O'RGANISHDA LUG'ATLARDAN FOYDALANISHNING LINGVISTIK ASOSLARI	
<b>JO'RAYEV Nabi Narziyevich</b> - BADIY MATNLARNI LINGVOMADANIY TAHLIL QILISHDA MILLIY TIL KORPUSINING AHAMIYATI	186
<b>MIRVALIYEVA Dildora Anvarovna</b> - KORPUS VA UNING TA'LIMIY KORPUSNING AHAMIYATI	191
<b>MUSULMANOVA Nargiza</b> - O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA TA'LIMIY KORPUS TARKIBIDA AYRIM O'QUV LUG'ATLARINING O'RNI	198
<b>SHUKUROV Otabek Ulashevich</b> - LEKSIKANING DINAMIK JARAYONLARIDA O'ZLASHMA SO'ZLARNING O'RNI	201
<b>QARSHIYEV Abduvali Berkinovich, KARIMOV Suyun Amirovich, Tursunov Muhammadsolih Sa'din o'g'li</b> - UZBEKCORPORA.UZ: MATNLARNI RAZMETKALASH DASTURLARI	206
<b>ZARIPOV Rafiqjon Ergashboy o'g'li</b> - O'ZBEK TILI KORPUSINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ME'YORLARI	213
<b>RAJABOV Elshod Erkinovich, QIYOMOVA Nigora Bahodir qizi</b> - O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "OILA" ASSOTSIATIV-SEMANTIK MAYDONINING TUZILISHI	218
<b>SHAMSUDINOVA Iqbol Baxovadinovna</b> - O'ZBEK MILLIY KORPUSIDA KO'MAKCHI VA KELISHIKLARNING LEKSIK-GRAMMATIK VALENTLIK ASPEKTI	224
<b>XOLMUXAMEDOV Baxtiyor</b> - KORPUSGA KIRITILGAN KAVSAR SURASI TADQIQI	229

---



**O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA TA'LIMIY KORPUS TARKIBIDA  
AYRIM O'QUV LUG'ATLARINING O'RNI  
THE ROLE OF SOME EDUCATIONAL DICTIONARIES IN THE  
STUDY OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE STRUCTURE OF THE  
EDUCATION STRUCTURE**

**Musulmanova N.R.\***

**Annotation.** This article discusses the need to create the National Corpus of the Uzbek language, its structure, the role of the ideographic and word-forming dictionaries of the Uzbek language for those who study and work in this language.

**Keywords:** National corpus, educational corpus, dictionaries, ideographic dictionary, derivational dictionary, methodology, principle, classification

**Kirish**

Bugungi kunda o'zbek tilining milliy korpusini yaratish kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri ekan, korpus tarkibidagi ma'lumotlar nafaqat xorijlik o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun bir dastur, balki O'zbekistonda yashaydigan millati, kasbi, yoshi, ijtimoiy holatidan qat'iy nazar barcha uchun keng foydalanish imkoniyatini berishi zarur, albatta. Milliy korpus tarkibiy qismlaridan biri sanalgan ta'limiy korpus, ma'lumki, o'z auditoriyasiga ega bo'ladi va bu auditoriya vakillari aksariyat holatda o'quvchi va talabalar bo'lishi muqarrar.

O'quvchi va talabalar uchun bugungi kunda yaratilgan barcha lug'atlar, shu jumladan o'zbek tilini o'rganish uchun keng imkoniyat yaratib bera oladigan lug'atlar mavjud. Bir qanchasi qayta-qayta nashr etilgan. Ayniqsa, tilning imlo va izohli lug'atlari bir necha marta chop etilganiga qaramasdan o'zga til vakillari uchun ulardan foydalanishda bir qancha murakkabliklar mavjud.

O'zbekistonda o'rta maktablar yetti tilda ta'lim beradi. Ammo bu maktablarda ta'lim va tarbiya oladigan o'quvchilar ham Davlat tili hisoblangan o'zbek tilini o'rganishga majburlar. Oliy o'quv yurtlarida o'zga tili guruhlarida o'zbek tilini o'qitish yo'nalishi talabalariga ham o'zbek tilining sir-asrorlarini o'rganish aynan Milliy korpusning Ta'limiy korpus qismida amalga oshiriladi. Demak, Milliy korpusning yaratilishi, uning mukammal ishlab chiqilishi, boyitilishi, keng tavsiya etilishi, haqiqatda, juda zarur hisoblanadi.

Korpusni lug'atlar bilan boyitishda bugungi kungacha yaratilgan boshqa tillarning korpuslaridan namuna olib emas, balki, o'z mentaliteti va grammatikasidan kelib chiqib ishlab chiqilishi muhim deb hisoblaymiz. Xususan, "O'zbek tilining ideografik lug'ati" hamda "O'zbek tilining so'zlar birikuvchanligi

\*Alisher Navoiy nomidagi ToshDUTAU Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi [musulmonova@navoiy.uz](mailto:musulmonova@navoiy.uz)





lug'ati" o'zbek tilini ham o'zga tilli, ham vatandoshlarimiz, millatdoshlarimiz tomonidan o'rganilayotganda juda qul keladi.

Ta'limiy korpusga kiritilajak ideografik lug'at boshqa lug'atlar singari barcha soxani qamrab oladi. Ideografik lug'at tilning leksik qatlami ma'noviy yaqinlikka ega bo'lgan tizimlashtirilgan so'zlar guruhidan tashkil topgan. Ushbu lug'atlar ham alifbo tartibidagi izohli lug'atlar singari leksemaning mazmunini ifodalaydi, faqat bunda alohida so'zni emas, balki tushunchadan uni so'z va iboralarda izohlanishiga qarab boriladi. Bu lug'atlarning asosiy maqsadi – umumiy mazmun ostidagi tushunchalarni leksik birliklar majmuida ifodalashdir. Bu o'quvchiga o'z fikrini adekvat ifoda etish va tilni mos ravishda o'rganishda vositalarni to'g'ri tanlash imkoniyatini beradi.

Ideografik lug'atlar, aslida, tizimlashtirilayotgan masalalarning umumiy metodologik tamoyillaridan va hal qilinayotgan muammolaridan kelib chiqib ideologik, assotsiativ (anologik), mavzuviy va suratli (kartinali) kabi asosiy turlarga ajratiladi. Ta'limiy korpus tarkibida bularning barchasi mavjud bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Chunki undan foydalanadigan shaxslar xuddi sinonim yoki omonim lug'atlari singari to'laqonli qoniqish hosil qilishi, izlagan narsasini topa olishi, zarur o'rinlarda undan foydalanishi va, albatta, uning mazmun-mohiyatiga yetishi lozim.

"O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1975-yilda A.N.Tixonov, N.T.Xatamov, S.A.Yemelyanova, M.Yu.Tixonovlar tomonidan chop etilgan "Russko-uzbekskiy tematicheskii slovar" ("Rus-o'zbek tillarining mavzuviy lug'ati")ni o'z davrining va hozirgi davrning eng mukammal ishlangan lug'atlaridan biri deyish mumkin. Chunki unda aynan mavzulashtirilgan so'z va iboralar ikki tilda aniq bayon etilgan. Mualliflar tilni mavzuviy klassifikatsiya asosida o'rganishda o'quvchilar dunyoqarashining ham shakllanishini, yondosh mavzularni ham bir vaqtda o'rganib borishlari imkoniyati paydo bo'lishini, real hayot va voqeliklarga tizimli ravishda qarashlarini shakllantiradi, deb ta'kidlaydilar ushbu lug'atning kirish qismida.

Davrlar o'tishi, kitoblar, qarashlar eskirishi mumkin, lekin tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq asrlar oshsa-da eskirmaydi. Shuning uchun ham, Milliy korpusning asosiy tarkibi hisoblangan ta'limiy korpus aynan til o'rganuvchilar uchun "vosita-i robita" vazifasini bajarishi kerak deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, o'zbek tilini o'rganish yoki unda foydalanish jarayonida so'zlar birikuvchanligi lug'ati ham o'z o'rniga ega. Chunki, amaliyotimiz davomida shunga guvoh bo'ldikki, o'zga til vakillarining o'zbek tilida o'z fikrlarini ifodalashlari, og'zaki va yozma nutqda so'z va iboralardan, so'z birikmalardan foydalanishlarida ayrim hollarda bir qadar ziddiyatlarga, qiyinchiliklarga uchrashadi. Shularni bartaraf etish maqsadida, bizning



fikrimizcha, Ta'limiy korpus tarkibiga "O'zbek tilining so'zlar birikuvchanligi lug'ati"ni ham kiritish zarur.

2021-yilda biz (N.Musulmanova, X.Qodirova) tomondan ta'lim o'zga tilli maktab o'quvchilari va talabalari uchun "So'zlar birikuvchanligi" o'quv lug'atining mobil ilovasi ishlab chiqildi internet saytiga Google platformasiga joylashtirildi va patentlashtirildi. Bugungi kunga kelib undan foydalanuvchilar soni 550 tadan oshdi.

Lug'at o'quvchilarning nutqida ko'p uchraydigan mustaqil so'zlar hamda hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xarakterli bo'lgan antonim, omonim, sinonim, paronim kabi so'zlar va ular bilan birikuvchanlik hosil qilayotgan birikmalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mazkur mobil lug'at o'quvchi-yoshlarning o'zbek tilida og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda orfografik va orfoepik xatoliklarga yo'l qo'ymasligida katta rol o'ynaydi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi, M.V.Lomonosov nomidagi MDU Toshkent shahar filiali Rus filologiyasi fakulteti talabalari, shuningdek, bir qator ta'lim rus tilida olib boriladigan o'rta maktablarning o'quvchilar bu lug'atdan juda unumli foydalanmoqdalar. Shuning uchun ham Ta'limiy korpus tarkibiga ushbu lug'at kiritilishini zarur deb hisoblaymiz.

Umuman, bugungi kunda Milliy korpusdan foydalanish katta yoshdagi insonlar uchun ham juda zarur va qulay deb o'ylaymiz. Aksar hollarda o'zbek tilidagi matnlarni rus, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilganda korpus tarkibidagi lug'atlar ancha muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, matnlarni tahrirlash, tahlil qilish, ma'lum bir vaziyatlarda sitata va ko'chirmalardan foydalanish, ilmiy va badiiy ijod bilan shug'ullanish jarayonida zarur bo'lgan so'z va iboralardan foydalanishda korpusning o'mi beqiyosdir.

#### ADABIYOTLAR

1. А.Н.Тихонов, Н.Т.Хатамов, С.А.Емельянова, М.Ю.Тихонова. "Русско-узбекский тематический словарь". – Т.: "Ўқитувчи", 1975, Б. 520.  
<https://ru.sng1lib.org/book/2983514/e2c923?dsourc=recommend>
2. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги интеллектуал мулк агентлигининг №DGU 10831 рақамли гувоҳномаси